

HUQUQDA OILA, QARINDOSHLIK ALOQALARI HAMDA ULARNING YURIDIK TAHLILI VA TARTIBGA SOLINISHI

Bozorova Mohlaroyim Siroj qizi

O'zMU "Yurisprudensiya: biznes huquqi" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12741932>

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahonda oilaga nisbatan qarashlar va ularning mamlakatimizda oilaga bo'lgan munosabat bilan qiyosi hamda qarindoshlik aloqalari va ularning huquqiy asosi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inson, oila, huquq, Yaponiya, Fuqarolik kodeksi, fuqarolik huquqi, er, xotin, huquqiy munosabat, Buyuk Britaniya, oila instituti, konsepsiya, hukumat qarori, farmon, Konstitutsiya, nikoh, milliy an'ana, qadriyatlar, sharqona tafakkur, qonunchilik, Oila kodeksi, qarindoshlik, shajara, to'g'ri shajara, yon shajara, ajdod.

Inson tug'ilibdiki, oila qurshovida o'sib-ulg'ayadi, kamol topadi, avval o'zi unib-o'sgan, keyinchalik esa o'zi tomonidan qurilgan oila hayotining ajralmas qismiga aylanadi. Umuman olganda, oila inson umri davomida qiyin qarorlar qabul qilishi kerak vaqtlarda, mushkulotlarni yengishda, shu bilan, birga baxtli fursatlarda hamnafas bo'la oladigan qadrlı ne'matlardan biridir.

Dunyoning turli burchaklarida "oila" tushunchasiga turlicha qaraladi. Xususan, Yaponiyada davlatning fuqarolik huquqi sohasidagi asosiy kodeksi hisoblangan Fuqarolik kodeksining 10-moddasiga ko'ra, oila — er va xotin, ota-onalar va bolalar, shuningdek, er yoki xotin o'rtasidagi muayyan huquqiy munosabatlarni tartibga solish va uning doirasini bilvosita belgilash usuli hisoblanadi¹. Buyuk-Britaniyada esa oilaga asosiy vazifasi o'z a'zolarini ta'minlash bo'lgan, ota-onalar va ularning avlodlaridan tashkil topgan birlamchi ijtimoiy guruh sifatida qaraladi².

Mamlakatimizda oila muqaddas hisoblanib, mazkur institutni har tomonlama rivojlantirish, uning mustahkamligini oshirish va yoshlarni oilaga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy asosini yaratish va ularga qonuniy tus berish maqsadida "O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi³, "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni imzolandi⁴ va ularning ijrosini ta'minlash maqsadida hukumat qarorlari tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 76-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Darhaqiqat, yurtimizda oila, qarindoshlik aloqalari to'g'risidagi normalar o'zbek xalqida uzoq yillar davomida shakllanib kelgan

¹ <https://www.mofa.go.jp> website of Ministry of Foreign Affairs of Japan

² <https://culturalatlas.sbs.com.au>

³ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.06.2018 yildagi PQ-3808-son

⁴ <https://lex.uz> 18.02.2020. PF-5938-son

qadriyatlar, milliy anʼanalar, sharqona tafakkur hamda hozirgi davrdagi zamonaviy turmush tarzi tendensiyalari bilan uygʻunlikda tuzilgan. Xoʻsh, qarindoshlik oʻzi nima? Qarindoshlik – odamlar orasidagi ijtimoiy-tarixiy qondoshlik munosabatlari va oʻzaro maʼnaviy yaqinlikni ifodalaygan tushuncha⁵. Qarindoshlik guruhlari ijtimoiy birikma boʻlib, unga aʼzolik oʻziga xos qoidalarga tayanish va har bir guruh aʼzosi faoliyatining nazorat qilinishini talab qiladi hamda qarindoshlik atamaları tizimi soni cheklangan, ota-ona avlodi uchun ushbu tizimning toʻrttasi va har bir avlod uchun olti tizimi mavjud boʻlib, unga aka-uka, opa-singil va togʻa-ammalar kiradi⁶. Bundan farqli ravishda, mahalliy xalqimiz qarindoshlikni quyidagi shajara asosida tavsiflashadi. Bular:

- 1) ota-ona,
- 2) farzand,
- 3) nabira,
- 4) chevvara,
- 5) evvara,
- 6) nobora,
- 7) dubora va undan keying avlodlar begona deyiladi.

Darhaqiqat, qonunchiligimizda ham qarindoshlik masalalariga keng oʻrin ajratilgan va tushunarli tarzda yoritib berilgan. Jumladan, Bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs oʻrtasidagi toʻgʻri shajara boʻyicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, yaʼni tugʻilish soni bilan belgilanadi. Bunda bolalar ota-onasiga nisbatan toʻgʻri shajaradagi birinchi, nevvara bobosiga, buvisiga nisbatan — ikkinchi, evvara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan — uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo. Shuningdek, aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga oʻxshashlar yon shajara boʻyicha qarindoshlar hisoblanadi va hokazo. Bundan kelib chiqadiki, toʻgʻri shajara boʻyicha qarindoshlar yon shajara boʻyicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir. Ikki shaxs oʻrtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining oʻzini hisobga qoʻshmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi, yaʼni hisob ajdodlar tomon toʻgʻri shajara boʻyicha ular uchun umumiy boʻlgan shaxsga (ajdodga) qarab va undan esa, avlodlar tomon — ulardan boshqasiga qarab olib boriladi. Tugʻishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida, togʻa va amaki, amma va xola oʻz jiyanlari bilan qarindoshlikning — uchinchi, togʻavachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar esa — toʻrtinchi darajasida turadilar⁷. Qarindoshlik ham oʻz navbatida ikki xil koʻrinishda boʻladi:

1. Yot aralashmagan qarindoshlik.
2. Yot aralashgan qarindoshlik.

Bunda Oʻzbekiston Respublikasining Oila Kodeksida keltirilgan normaga koʻra, aka-uka va opa-singillar yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh boʻlishi mumkin. Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan boʻlsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha ona bir ota boshqa boʻlsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashmagan

⁵ <http://forum.oyina.uz>

⁶ K.F.Kottak. “Madaniy antropologiya” darsligi

⁷ Oʻzbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. 57-modda.

qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar tug'ishgan, yot aralashgan qarindoshlikda esa, aka-uka va opa-singillar o'gay hisoblanadi. Demak, aytish mumkinki, er-xotinning oldingi nikohlaridan bo'lgan bolalari o'zaro qarindosh sanalmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz huquqiy tizimida oila instituti hamda qarindoshlik aloqalariga bo'lgan e'tibor jahon qonunchiligi bilan taqqoslaganda yuqori hisoblanib, bu sohada amalga oshirilayotgan har qanday islohotlar o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, bunda islohotlar zamiri hisoblanadigan huquqiy normalar va qonunchilik hujjatlarining tarixan shakllanib kelayotgan milliylik ruhida qabul qilinayotganligi yetakchi asos bo'lib xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

References:

1. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.06.2018 yildagi PQ-3808-son
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 76-modda.
3. K.F.Kottak. "Madaniy antropologiya" darsligi.
4. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. 57-modda
5. <https://www.mofa.go.jp> website of Ministry of Foreign Affairs of Japan
6. <https://culturalatlas.sbs.com.au>
7. <https://lex.uz> 18.02.2020. PF-5938-son
8. <http://forum.oyina.uz>